

**Andijon davlat chet tillar instituti
Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası
mudiri filologiya fanlar doktori,
dotsent Muqomjon Axunov
Muhammadaminovich taqrizi ostida**

Abduxalilova Xurshida Ilxomjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti ingliz
filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik
fakulteti talabasi
E-mail: xurshidaabduxalilova06@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI

TIL BIRLIKLARINING O'RGANILISHI

ANNOTATSIYA: Ingliz va o'zbek tillarida his-hayajonni ifodalovchi til birliklarini o'rganish obyekti sifatida leksik-semantik maydoni va ularning tarkibiy tuzilishi va shu bilan bog'liq bo'lgan semantikasini o'rganish. Shu asosda ularni Ingliz va o'zbek tillarida his-hayajonni ifodalovchi til birliklarini o'rganish obyekti sifatida leksikasining leksik-semantik maydonini so'zlar bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo'lgan xodisalarni ochib berishdir.

Kalit so'zlar: leksik, semantik, his-hayajon, tilshunoslik, lingvokulturologiya.

Dunyo tilshunosligida turli hissiyotlarni bildiruvchi birliklar tadqiqi doimo markaziy o'rinda turgan. Nutqni tinglovchiga to'laqonli va jonli yetkazish uchun tilda mavjud bo'lgan his-hayajonni ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi, natijada, voqea-hodisalarning tinglovchi ongiga yanada aniq, haqiqiy va tushunarli yoritib berishiga erishiladi. Shu sababli, his-hayajonni ifodalovchi vositalarni turli tizimdagi tillarda qiyosiy-tipologik va lingvokulturologik kesimda tadqiq etish masalasi tilshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda. Keyingi yillarda his-hayajon masalasini lingvistik nuqtayi nazardan komparativ usulda tadqiq qilish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zotan, muloqotning jonli, ta'sirli va jozibador bo'lishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan his-hayajonni ifodalovchi leksik birliklar va ularning kommunikativ-pragmatik, struktur-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini tilshunoslikning zamonaviy aspektlarida tadqiq etish zaruriy vazifalardan biriga aylandi.

Psixologiyada ham ko'pincha hissiyot va emotsiya atamaları bir xil ma'noda qo'llaniladi. Tashqi alomatları yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni ichki kechinmalarda ifodalashdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shakli emotsiya deyilsa, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojini qondiruvchi va unga mone'lik qiluvchi obyektlarga nisbatan odamning munosabatlarini aks ettirish hissiyotdir. Lablarning titrashi, tabassum, kulgu, sarosimalik kabilar emotsiya hisoblansa, vatanparvarlik, mehr-oqibat, javobgarlik, ma'suliyat, sevgi-muhabbat his-tuyg'ulardir. Ularning o'zaro muhim farqi: biri (hissiyot) ijtimoiy, ikkinchisi (emotsiya) individual, xususiydir¹¹.

A.Savchenko ta'kidlaganidek, "Ma'lum bir emotsional munosabatlarning ijtimoiy guruh va ijtimoiy xalq tajribasiga asoslangan ma'lum bir tushunchalar bilan uyg'unlashuvi til yordamida amalga oshadi va mustahkamlanadi. Bu vaziyatda ongning ajralmas qismi hisoblangan his-tuyg'ular ham til shaklining bevosita ajralmas qismi bo'lib qoladi".

J.Vandries so'z ma'no qurilishidagi o'ziga xosliklarning voqelanishi xususida to'xtalar ekan: "So'z bizning ongimizga hech qachon yolg'iz holda kirmaydi. Hatto faqat bir so'z bir ma'nosi bilan bizning ongimizda ishtirok etganda ham, bu so'z nozik iplar bilan bo'lgan, ammo

soyada qolayotgan juda ko‘plab tushuncha va emotsiyalar har daqiqada ongimizga bostirib kirishga tayyor turadi. Ongimiz orqali o‘tadigan so‘zlar bizning aqliy va hissiy hayotimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi”, deb ta’kidlaydi.

Y.Volf emotsional til birliklarning ikki xil maqsadga ega bo‘lishini ta’kidlagan. Birinchi turida tinglovchida ma’lum bir his-tuyg‘u tug‘dirish maqsadi ko‘zlanga, ikkinchisida esa so‘zlovchi o‘z hissiyotlarini ma’lum qilishga harakat qiladi. Biroq bu ikki turdagi maqsadni bir-biridan ajratish qiyin, har ikkala holatda ham kommunikativ vazifa bir xilda namoyon bo‘ladi va nutqiy harakatdan kutiladigan samara ham yagonadir. Chunki har qanday holatda ham nutq subyekti bayon qilinayotgan hodisa va nutq vaziyatiga emotsional baho beradi hamda tinglovchining xatti-harakatiga ta’sir o‘tkazadi.

G‘.Shingarovning inson his-tuyg‘ulari haqida yozishicha, hissiyot o‘z ehtirolari doirasida yashab turib, eng ahamiyatli ijtimoiy xarakterdagi tuyg‘uni asray oladi. Ma’naviy his-tuyg‘u insonga xos bo‘ladi. Shuning uchun inson tabiatan tuyg‘u va ehtirolar majmuidir. Insondagi barcha ehtiros va tuyg‘ular salbiy yoki ijobiy bo‘lishidan qat’iy nazar ijtimoiylik xususiyatiga egadir. Inson o‘z tuyg‘u va ehtirolarini boshqarishga qodir bo‘lsa, uni aql yo‘rig‘i bilan yaxshilik sari bura olsa, barcha jaholat va nafratdan xalos bo‘la oladi. Insondagi his-tuyg‘u olami va ehtirolarini ma’naviy-ruhiy imkoniyatlar nuqtayi nazaridan qaralganda quyidagilarga bo‘lish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy tuyg‘u. Bu bevosita vatanga, mustaqillikka sadoqat, milliy g‘urur va iftixor bilan bog‘liq bo‘lgan tuyg‘ular.

Ikkinchidan, intellektual tuyg‘u. Bu fikr yorqinligi va tiniqligi, hayratlanish, ikkilanish, ishonchlik va ishonchsizlik, oxirigacha o‘ylamay ish qilish, o‘zini kamsitish yoki kalandimog‘lik va boshqalar. Inson xuddi ana shunday imkoniyati bilan yaratuvchanlik, bunyodkorlik, kashfiyotlar qilish namunasini ko‘rsatadi. Aql quvvatini, mo‘jizasini namoyon etadi.

Uchinchidan, ezgulik va yovuzlik tuyg‘usi. Bu qadr-qimmatni bilish, muhabbat va nafrat, havas va hasad tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy jarayondir.

To‘rtinchidan, estetik tuyg‘u. Bu bevosita go‘zallikni his qilish, hissiyot va tuyg‘ularning pokizaligi, beg‘uborligi, hayajonlanish, quvonish, iztirob chekish, nafratlanish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, his-hayajonni ifodalovchi leksik vositalar nutqiy tafakkur jarayonini o‘ziga xos ohang va shaklda namoyon etuvchi lisoniy tuzilma sifatida tilda va tilshunoslikda alohida o‘ringa ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida his-hayajonni ifodalovchi leksik birliklar ma’lum darajada tadqiq qilingan. Tadqiqotlarda keltirilgan fikrlar va takliflar kelgusida his-hayajonni ifodalovchi leksik vositalarni tadqiq qilishda asos sifatida xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar:

1. Абакумов С.И. Современный русский литературный язык. – М.: Наука, 1942. – 182 с.
2. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – 233 с.
3. Арнольд В.И. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – 376 с.

- Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Едиториал УРСС, 2001. – 412 с.
4. Вандриес Ж. Язык. – М., 1937. – 176 с.
 5. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: избранные труды – М.: Наука, 1986. – 312 с.
 6. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959. – 652 с.
 7. Винокур Т. Закономерности использования языковых единиц, Наука, 1980. – 17с.
 8. Вольф Е. Функциональная семантика оценки. – М., Наука, 1985. – 288 с.
 9. Гегель В. Система науки. Феноменология духа / Соч. Т. IV. – М., 1959. – 444 с.
 10. Изард К.Э. Психология эмоций. – Питер, 2006. – 464 с.